



NAMANGAN VILOYATI MINGBULOQ TUMANI HOKIMINING QARORI

2025-yil 19-mart

135-6-81-Q/25

Mingbuloq tumani hokimligi

Namangan viloyati hokimining 2025-yil 17-martda “O‘zbekiston Respublikasi Prezidentining “Ko‘chmas mulkni ommaviy baholash tizimini joriy etish to‘g‘risida” 2025-yil 5-martdagi PF–43-son Farmoni ijrosi haqida”gi 131-6-0-Q/25-sonli qarori to‘g‘risida

O‘zbekiston Respublikasi Prezidentining “Ko‘chmas mulkni ommaviy baholash tizimini joriy etish to‘g‘risida” 2025-yil 5-martdagi PF–43-son Farmoni hamda Namangan viloyati hokimining 2025-yil 17-martdagi 131-6-0-Q/25-sonli qarori ijrosini ta‘minlash maqsadida, “Mahalliy davlat hokimiyati to‘g‘risida”gi O‘zbekiston Respublikasi Qonunining 6 va 21¹-moddalariga asosan,

QAROR QILAMAN:

1. Namangan viloyati hokimining 2025-yil 17-martdagi 131-6-0-Q/25-sonli qarori ijrosi rahbarlik va ijrosini ta‘minlash uchun qabul qilinsin.
2. O‘zbekiston Respublikasi Prezidentining 2025-yil 5-martdagi PF–43-son Farmoni bilan: ushbu Farmonni qabul qilishdan ko‘zlangan asosiy maqsadlar etib quyidagilar belgilanganligi:
 - (a) respublikadagi mavjud 8 milliondan ortiq turar va noturar joylar, 7 millionga yaqin yer uchastkalarining iqtisodiy aktiv sifatidagi qiymatini aniqlash;
 - (b) ko‘chmas mulk obyektlarining soliq solish, oldi-sotdi qilish, garovga qo‘yish, jamoat ehtiyojlari uchun olib qo‘yish va boshqa holatlar uchun aniqlanadigan qiymati o‘zaro mutanosib bo‘lishini ta‘minlash;
 - (v) ko‘chmas mulk bozoriga oid ishonchli, to‘liq va davriy ravishda yangilanib boradigan axborot bazani yaratish;
 - (g) soliq solishda adolatlilik tamoyilini yanada keng joriy etishi;2025-yildan boshlab bosqichma-bosqich barcha ko‘chmas mulk obyektlari ularning bozor narxiga yaqin bo‘lgan qiymatini aniqlash maqsadida davriy ravishda ommaviy baholashdan o‘tkazilishi belgilanganligi;
- Ommaviy baholash ishlari quyidagi bosqichlarda amalga oshirilishi:
 - (a) 2025-2026 yillarda — eksperiment tariqasida Toshkent shahrida;
 - (b) 2026-2027 yillarda — Nukus shahri va viloyatlar markazlarida;
 - (v) 2027 yil va undan keyingi yillarda — qolgan hududlarda;Kadastr agentligi huzurida davlat muassasasi shaklida boshqaruv xodimlarining cheklangan soni 30 nafardan iborat bo‘lgan, Davlat budjeti mablag‘lari hisobidan moliyalashtiriladigan Ko‘chmas mulkni ommaviy baholash milliy markazi (keyingi o‘rinlarda — Milliy markaz) tashkil etilganligi;
- quyidagilar:
 - (a) Iqtisodiyot va moliya vazirligi — ko‘chmas mulkni ommaviy baholash sohasida yagona davlat siyosatini amalga oshiruvchi organ;
 - (b) Kadastr agentligi — ko‘chmas mulkni ommaviy baholash sohasida maxsus vakolatli organ;
 - (v) Milliy markaz — ko‘chmas mulkni ommaviy baholash sohasida ijro etuvchi organ etib belgilanganligi;

Iqtisodiyot va moliya vazirligi, Kadastr agentligi hamda Ko'chmas mulkni ommaviy baholash milliy markazi o'rtasida ko'chmas mulkni ommaviy baholash sohasidagi vazifalar taqsimoti 1-ilovaga muvofiq tasdiqlanganligi;

belgilanishicha, respublika ijro etuvchi hokimiyat organlari va mahalliy davlat hokimiyati organlari, fuqarolarning o'zini o'zi boshqarish organlari va boshqa tashkilotlar Milliy markazning so'roviga ko'ra o'n kun ichida ommaviy baholash tizimi uchun zarur bo'lgan axborotlarni bepul taqdim etishlari, o'zlarining axborot tizimlarini Milliy markazning axborot tizimlari bilan integratsiya qilishlari lozimligi;

O'zbekiston Respublikasi Prezidentining 2023-yil 25-yanvardagi "Respublika ijro etuvchi hokimiyat organlari faoliyatini samarali yo'lga qo'yishga doir birinchi navbatdagi tashkiliy chora-tadbirlar to'g'risida"gi PF-14-son Farmoniga 2-ilovaga muvofiq o'zgartirishlar va qo'shimcha kiritilganligi ma'lumot uchun qabul qilinsin.

3. Kadastr agentligining tuman bo'limi (A.Shodmonov) manfaatdor idoralar bilan birgalikda O'zbekiston Respublikasi Prezidentining 2025-yil 5-martdagi PF-43-son Farmoni talablari asosida ish tashkil etsin.

4. Mazkur qarorning bajarilishini nazorat qilish tuman hokimining moliya-iqtisodiyot va kambag'allikni qisqartirish masalalari bo'yicha birinchi o'rinbosari – tuman iqtisodiyot va moliya bo'limi boshlig'i A.Abdusalomov zimmasiga yuklansin.

Tuman hokimi



A.Mansurov